

## INKLYUZIV TA'LIM SAMARADORLIGINI OSHIRISHDA KADRLARGA QO'YILADIGAN TALABLAR MAZMUNI

**Djurayeva Sohiba Barat qizi**

JDPU Maxsus pedagogika kafedra o'qituvchisi.

**Kubayeva Sarvinoz Baxodir qizi**

JDPU Maktabgacha va boshlang'ich ta'limda

xorijiy ta'lim yo'nalishi 2-kurs talabasi.

<https://doi.org/10.5281/zenodo.14306370>

**Annotatsiya.** Inklyuziv ta'lim umum o'rta ta'limni rivojlantirish va barcha bolalar uchun mos bo'lgan ta'limdir. Imkoniyati cheklangan bolalar ta'lim olishi uchun qulay bo'lgan sharoitlarni yaratishda ta'lim-tarbiya beradigan kadrlar masalasi ham muhim o'rinda ega.

Ushbu maqolada Inklyuziv ta'limda bolalarga ta'lim dasturlarini o'zlashtirishda maxsus pedagoglar va tyutorlar (yordamchi pedagog xodimlar), psixologlar yordam berishi haqida bir qator fikrlar bayon etilgan.

**Kalit so'zlar:** inklyuziv ta'lim, kadrlar, tyutor, imkoniyati cheklangan bola, sog'lom bola, ijtimoiy muhit.

## CONTENTS OF REQUIREMENTS FOR STAFF IN INCREASING THE EFFICIENCY OF INCLUSIVE EDUCATION

**Abstract.** Inclusive education is the development of general secondary education and education suitable for all children. In creating favorable conditions for the education of children with disabilities, the issue of personnel providing education has an important place. This article presents a number of ideas about how special pedagogues and tutors (assistant pedagogical staff), psychologists help children in learning educational programs in inclusive education.

**Key words:** inclusive education, personnel, tutor, child with disabilities, healthy child, social environment.

## СОДЕРЖАНИЕ ТРЕБОВАНИЙ К ПЕРСОНАЛАМ В ПОВЫШЕНИИ ЭФФЕКТИВНОСТИ ИНКЛЮЗИВНОГО ОБРАЗОВАНИЯ

**Аннотация.** Инклюзивное образование – это развитие общего среднего образования и образования, пригодного для всех детей. В создании благоприятных условий для обучения детей с ограниченными возможностями важное место занимает вопрос кадров, обеспечивающих образование. В данной статье представлен ряд идей о том, как специальные педагоги и тьюторы (помощники педагогического персонала), психологи помогают детям в освоении образовательных программ инклюзивного образования.

**Ключевые слова:** инклюзивное образование, персонал, воспитатель, ребенок с ограниченными возможностями здоровья, здоровый ребенок, социальная среда.

Bugungi kunda O'zbekiston ijtimoiy yo'naltirilgan barqaror bozor iqtisodiyotiga, ochiq tashqi siyosatga ega bo'lgan kuchli demokratik huquqiy davlat va fuqarolik jamiyatini barpo etish maqsadida jamiyat hayotining barcha sohalarida bosqichma-bosqich islohotlarni amalga oshirib kelmoqda. Jumladan inson manfaatlarini ko'zlash va himoyalash faoliyatida imkoniyati cheklangan shaxslarni sog'lom insonlar qatori milliy ruhda tarbiyalash, ijtimoiy yordam ko'rsatish ya'ni moddiy va ma'naviy jihatdan qo'llab-quvvatlash, axloqiy, aqliy, ruhiy va jismoniy jihatdan

kamol topishlari uchun zarur shart-sharoitlarni yaratish hamda ijtimoiy jamiyatga yetuk, mustaqil fuqaro darajasida tayyor bo'lib yetishishlarida yuzaga keladigan muammolarni bartaraf etish masalalariga hukumatimiz tomonidan jiddiy e'tibor qaratilmoqda.

Ijtimoiy himoya sohasida amalga oshirilayotgan barcha islohotlar davlatimizning mehr-muruvvatga qaratilgan siyosati izchilligi va mantiqiy davomliliigi belgisidir. Yurtimizda 2020-yil 23-sentabr kuni 11-bob va 75-moddani o'z ichiga qamrab oluvchi yangi tahrirdagi "Ta'lim to'g'risida" O'RBQ qonun qabul qilindi. Ushbu qonunning maqsadi O'zbekiston Respublikasida fuqarolarga ta'lim-tarbiya berish, kasb-hunar o'rgatishning huquqiy asoslarini va ta'lim sohasidagi davlat siyosatining asosiy prinsiplarini belgilash hamda har kimning bilim olishdan iborat konstitutsiyaviy huquqini ta'minlashdan iboratdir. Yangi tahrir ostida "Ta'lim to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasi Qonunining 9, 20, 34, 38, 46, 50, 51, 52 va 55-moddalari imkoniyati cheklangan shaxslar ta'lim-tarbiyasiga qaratilganligi, hukumatimiz tomonidan olib borilayotgan ijtimoiy himoya siyosatining yaqqol isbotidir. Jumladan 55-moddada Jismoniy, aqliy, sensor (sezgi) yoki ruhiy nuqsonlari bo'lgan bolalarni (shaxslarni) o'qitish hamda tarbiyalash vazifasiga qaratilgan bo'lib, Davlat jismoniy, aqliy, sensor (sezgi) yoki ruhiy nuqsonlari bo'lgan bolalarning (shaxslarning) davlat ixtisoslashtirilgan ta'lim muassasalarida, umumiy o'rta, o'rta maxsus, professional ta'lim muassasalarida inklyuziv shaklda bepul umumiy o'rta, o'rta maxsus, professional va maktabdan tashqari ta'lim olishini ta'minlaydi. Jismoniy, aqliy, sensor (sezgi) yoki ruhiy nuqsonlari bo'lgan, shuningdek uzoq vaqt davolanishga muhtoj bo'lgan bolalarni o'qitish hamda tarbiyalash uchun davlat ixtisoslashtirilgan ta'lim muassasalari tashkil etiladi. Ta'lim oluvchilarni ushbu ta'lim muassasalariga yuborish va ulardan chetlatish ota-onasining yoki boshqa qonuniy vakillarining roziligi bilan tibbiy-psixologik-pedagogik komissiyaning xulosasiga binoan amalga oshiriladi.

Davlat ixtisoslashtirilgan ta'lim muassasalarida ta'lim oluvchilar davlat ta'minotida bo'ladi. deb belgilab qo'yilgan. Imkoniyati cheklangan shaxslarning jamoada teng huquqli hayot kechirishlari uchun ijtimoiy moslashuv( adaptatsiya)ni shakllantirish, ular uchun maxsus ta'lim tizimini takomillashtirish hamda inklyuziv ta'limni joriy qilish, pedagogik kadrlar sifatini oshirish, reabilitatsion va abilitatsion tadbirlar faoliyatini kengaytirish va korreksion amaliyotga innovatsion texnologiyalarni keng joriy etish bo'yicha bugungi kunda ko'plab tadqiqot ishlari amalga oshirilmoqda. Davlatimiz imkoniyati cheklangan bolalar to'g'risida alohida g'amxo'rlik qiladi. Ya'ni ularning salomatligini saqlash, mehnat qilish, bilim olish va kasb o'rganish, uy-joyli bo'lish va boshqa ijtimoiy-iqtisodiy huquqlarni ro'yobga chiqarishda to'siqlarni bartaraf etish maqsadida qonunlarda ko'zda tutilgan shakllarda ularga ijtimoiy yordam berish yo'li bilan ularning xos kamol topishlari, ijodiy va ishlab chiqarish imkoniyatlarini hamda qobiliyatlarini ro'yobga chiqarishlari uchun zarur shart-sharoit yaratib beradi.

Respublikamizni ijtimoiy, iqtisodiy rivojlanishini, milliy qadriyatlarimizni e'tiborga olgan holda xamda tarixiy shakllangan maxsus ta'lim tizimidan voz kechmasdan, qisqartirmasdan, aksincha umumta'lim bilan uzviy bog'lanib hamkorlikda inklyuziv integratsiya ta'limiga bosqichma-bosqich o'tib borishning milliy modulini yaratish maqsadga muvofiqdir.

Kelajakda maxsus ta'lim muassasalari umumta'lim muassasalari uchun korreksion fanlar uslublari bo'yicha maslahat beruvchi markaz vazifasini bajarishi lozim.

Bugungi kunda Respublikamizda imkoniyati cheklangan bolalarni inklyuziv ta'limga jalb qilish borasida bir qator ilmiy-amaliy tajribalar olib borilmoqda. Juda ko'plab davlatlarda maxsus yordamga muhtoj bolalarni kamol toptirishda kompensator imkoniyatlarni rivojlantirish hamda ijtimoiy moslashtirishni to'laligicha yo'lga qo'yish maqsadida umumta'lim maktablarida ta'lim berish davlat siyosati rejasiga kiritilgan. "Ta'lim tizimi, - deb yozadi L. S. Vigotskiy, - nuqsonli bolani tarbiyalashning asosiy vazifasi boladagi nuqsonlarni kompensatsiya qilish va uning xayotga integratsiyasini ta'minlashdan iboratdir. Buning uchun shunday ta'lim tizimini yaratish kerakki, maxsus yordamga muhtoj bola o'qish jarayonida xar tomonlama rivojlansin. L.S. Vigotskiy umumiy va maxsus ta'limni uyg'unlashtiradigan ta'lim tizimini tashkil etish maxsus yordamga muhtoj bolalarni umumta'lim tizimida o'qitishni e'tirof etadi. Inklyuziv ta'lim bir qator kadrlar jimmasiga ulkan mas'uliyatlarni yuklaydi. Hamda yordamchi pedagoglarga nisbatan ehtiyoj tug'iladi. Inklyuziv ta'limda alohida ta'lim ehtiyojlari bo'lgan bolalarga individual ta'lim dasturlarini o'zlashtirishda maxsus pedagoglar va tyutorlar (yordamchi pedagog xodimlar)

Umumiy o'rta ta'lim muassasalarida o'z faoliyatlarini amalga oshirishadi. Inklyuziv sinf o'qituvchisi umumiy o'rta ta'lim muassasa vazifalarini bajarish bilan birgalikda imkoniyati cheklangan bolaning jismoniy va ruhiy rivojlanishini va bilish faoliyatini korreksiyalashi, ta'lim samaradorligini oshiruvchi metodlarni qo'llashi hamda o'z-o'zini nazorat qila olish ko'nikmalarni maxsus ehtiyojli bolalarda hosil qila olishi kerak. Inklyuziv sinf tarbiyachisi inklyuziv sinf o'qituvchisi, maxsus pedagog, ota-onalar hamda boshqa mutaxassislar bilan hamkorlikda o'z ishini amalga oshirishi lozim. Sog'lom va imkoniyati cheklangan bolalar bilan olib boriladigan mashg'ulotlarni rejalashtirishda tarbiyachi bolalar orasida ijobiy ijtimoiy muhitni yarata olishi kerak. Inklyuziv ta'lim muassasasida psixolog faoliyati muhim o'ringa ega.

Chunki Psixologning faoliyati har bir bolaning ruhiy salomatligini himoyalash, ruhiy rivojlanishidagi kamchilklarini bartaraf etish va korreksiyalashga qaratiladi. Psixolog imkoniyati cheklangan bolani doimiy tarzda psixologik-pedagogik jihatdan kuzatib boradi, har bir bola uchun individual rivojlantirish dasturlarini tuzadi. Imkoniyati cheklangan bolani oilada tarbiyalash bo'yicha ota-onalarga maslahatlar beradi. Eng muhim vazifasi muassasa tarbiyalanuvchilari orasida psixik og'ishlarni oldini olish hamda me'yorida rivojlangan va imkoniyati cheklangan bolalar orasida sog'lom inklyuziv-ruhiy muhitni yaratishdan iboratdir. Inklyuziv ta'lim muassasasi shifokor-pediatri (psixonevrolog) har bir bolaning ruhiy asab holatini doimiy ravishda tekshirib boradi. Zarurat bo'lganda davolash muolajalarini tavsiya etadi, korreksion pedagogik ta'lim jarayonida bolalar sog'lig'ini nazorat qiladi, aqliy va jismoniy yuklamaning me'yorini belgilaydi, ota-onalarga bolaning somatik hamda ruhiy salomatligini saqlash yuzasidan maslahatlar beradi. Inklyuziv ta'limda kadrlarga qo'yiladigan asosiy talab, barcha bolalarning rivojlanishi uchun qulay bo'lgan muhitni tashkil qilish, bolalarni ta'lim olish, mehnat qilishga bo'lgan barcha ehtiyojlarini qondirish hamda ularni ijtimoiy qo'llab quvvatlash va jamiyatda o'z o'rnini topishga ko'maklashishdan iboratdir.

## REFERENCES

1. «Maxsus ta'limning uzluksiz tizimi va mazmunini modernizatsiyalashtirish - defektologiyaning dolzarb muammolari» mavzusidagi Respublika ilmiy-amaliy anjumanining makolalar tuplami Toshkent «CHASHMA PRINT» 2011

2. <https://lex.uz/docs/-5013007> O'zbekiston Respublikasi 2020-yil 23-sentabr yangi tahrirdagi "Ta'lim to'g'risida" O'RQ-637-sonli qonuni;
3. R. Sh. Shomaxmudova "Maxsus va inklyuziv ta'lim xalqaro va milliy tajribalar"- Uslubiy qullanma Toshkent «Chashma print»2011
4. 2020 yil 13 oktabrdagi "Alohida ta'lim ehtiyojlari bo'lgan bolalarga ta'lim-tarbiya berish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-4860-son qarori.